

**“O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati “Korrupsiyaga qarshi
ichki nazorat bo‘limi”ning
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu “Nizom” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentyabrdagi 27-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan Namunaviy nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘lim” (bundan keyin “Bo‘lim” deb yuritiladi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati (bundan keyin “Jamiyat” deb yuritiladi) Boshqaruv raisiga bo‘ysunadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zagrolizing” AJ Ustaviga, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv yig‘ilishi qarorlariga, Boshqaruv raisining buyruq va topshiriqlariga hamda ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim Jamiyat va uning tizim korxonalarida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko‘rishga mas‘ul hisoblanadi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini Jamiyatning boshqarma va bo‘limlari, filiallari va hamkorlari (lizing oluvchilar, texnika ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) bilan uzviy aloqadorlikda olib boradi.

6. Bo‘lim rahbari Jamiyat tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

7. Bo‘lim rahbarini lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishiladi. Bunda, Jamiyat tomonidan Agentlikka Jamiyat Boshqaruv raisining Bo‘lim rahbarini lavozimidan ozod etish haqidagi taqdimnomasi beriladi.

Ushbu taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari ko‘rsatiladi. Taqdimnomaga xodimni lavozimidan ozod etish sabablari va motivlarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

8. Agentlik tomonidan Bo‘lim-rahbarini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblansa, shu jumladan Bo‘lim rahbari ta‘qib qilinayotganligi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lsa, ushbu masalada Bo‘lim rahbari bilan suhbat o‘tkazilishi mumkin.

Quyidagilar Bo‘lim rahbarini lavozimidan ozod etishni kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi:

- Bo‘lim rahbarini lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

- Bo‘lim rahbarining zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta‘qib qilinganligi holati aniqlanganda.

9. Taqdim etilgan hujjatlar Agentlik tomonidan uch ish kuni ichida ko‘rib chiqilib Jamiyatga Bo‘lim rahbarini lavozimidan ozod etishni kelishish yoki kelishishning rad etilganligi sabablari ko‘rsatilgan xat taqdim etiladi.

10. Bo‘lim rahbarining malakasiga bo‘lgan talablar, funksional vazifalari, huquqlari va javobgarligi ushbu “Nizom” va lavozim yo‘riqnomasi bilan tartibga solinadi.

II. Bo‘limning tuzilishi

11. Bo‘limning shtat birligi quyidagicha:

Bosh mutaxassis - 1 birlik;

12. Bo‘limning mavjud shtat birliklarini qisqartirishga va ularni Jamiyatning boshqa tarkibiy tuzilmalariga qayta taqsimlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

III. Bo‘limning vazifalari

13. Bo‘limning asosiy maqsadi Jamiyatda, shuningdek, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, tashkilot tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta‘minlashdan iborat.

14. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;

Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta‘minlash va nazorat qilish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib

borish.

IV. Bo‘limning funksiyalari

15. Bo‘lim faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

15.1. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

- Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;
- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Jamiyat rahbariyatiga kiritadi;
- Jamiyatning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;
- Jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihalarini tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtayi nazardan baholaydi va xulosalar beradi;
- Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi.

15.2. Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

- Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini yaratadi;
- Jamiyat tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma’lumot to‘playdi;
- Maxsus axborot aloqa kanallari orqali Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;
- Jamiyatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reyestri yoki o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro‘yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;
- Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;
- Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;
- Korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Jamiyat xodimlariga yetkazadi;

- Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so'rovlar o'tkazadi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Jamiyatda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;
- Har chorakda va Jamiyat Boshqaruv raisining talabiga ko'ra Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ulardagi korrupsiyaviy holat haqida Jamiyat Boshqaruviga ma'lumot kiritib boradi;

15.3. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

-Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

-Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

-Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

-Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallarini ishlab chiqadi;

-O'quv rejaga muvofiq tashkilotning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

-Jamiyat tizimi xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

-Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

-Jamiyat tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va tashkilotning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

-Jamiyat tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

-Amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

-Jamiyat tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma (shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

-Jamiyat faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;

15.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

- Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

- Qonunchilik hujjatlari bilan Jamiyat zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

- Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi va qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

16. Bo'limga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

V. Bo'limning huquq va majburiyatlari

17. Bo'lim o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- Jamiyat xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

- Xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida tashkilot xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

- Jamiyat tizimi xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

- Jamiyat rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

- O'z faoliyati doirasida tashkilot tizimiga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

- Jamiyatning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish;

- Tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

Bo'lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Bo'lim o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

- Ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

- Qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

- Jamiyat tizimida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri yuqori turuvchi organ, Agentlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan rahbariyatiga ma'lumotnomalar kiritish;

- Har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi choraklik hisobotni Agentlikka taqdim etish;

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

VI. Ushbu Nizomning bajarilishini nazorat qilish

19. Bo'lim xodimi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. Uquv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar tashkilot yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

20. Bo'lim faoliyatining natijadorligi tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi. Bo'lim faoliyatining maqsadli ko'rsatkichlari Jamiyatning birinchi rahbari tomonidan. Bo'lim faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

Bo'lim xodimi o'z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

VII. O'zaro aloqalar

21. Bo'lim Jamiyatning barcha xodimlari va mansabdor shaxslari bilan uzviy aloqada bo'lib, ularning huquqiy madaniyatini oshirishda tushuntirishlar, huquqiy maslahatlar bilan faol ishtirok etadi va ularning faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda qatnashadi.

22. Bo'lim o'z faoliyatini amalga oshirishda Jamiyatning barcha boshqarma va bo'limlari bilan uzviy aloqada bo'lib, tegishli ma'lumotlarni so'rab oladi va ularga so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etadi.